

**BUG'DOY KASALLIKLARI VA UNGA QARSHI  
KURASHISH CHORALARI**

*Halimov Asadbek Avazbek o'g'li*

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi*

*Sobirov Saidakbar Mahmudbek o'g'li*

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi*

*To'xtasinov Sardorbek Sobirjon o'g'li*

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi*

**Annotatsiya:** Respublikamizda donga bo'lgan extiyoj juda yuqori bo'lib bug'doydan sifatli un olinib axoli extiyoji uchun yetkazib berilmoqda. Respublikamizga xar yili qo'shni davlatlardan to'nalab don va un maxsulotlari import qilinmoqda bunday jarayonlarni axoli soni ortib borayotganligi bilan izoxlash mumkin. Bug'doy xosilini oshirish maqsadida juda ko'plab chora tadbirlar qilib borilmoqda lekin shunga qaramasdan bug'doyda juda ko'plab kasalliklar uchramoqda.

**Kalit so'zlar:** O'simlik, bug'doy, zamburug'li kasalliklar, qorakuya, zang, kimyoviy preparat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'laqonli ta'minlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 9-sentabrdagi PQ-4821-son qarorining ijrosini ta'minlash hamda oziq-ovqat sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha yangi tashkil etilayotgan istiqbolli loyihalarni yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qildi. Qonun doirasida joylarda amaliy ishlar olib borilmoqda. So'nggi 40 yil ichida bug'doy yetishtirishda hosildorlikning sezilarli o'sishi talab va taklif o'rtasidagi barqaror muvozanatni ta'minladi. Biroq, global aholi sonining prognoz qilingan o'sish sur'atlari va dietadagi o'zgarishlar shuni anglatadiki, kelgusi bir necha o'n yilliklar davomida bu o'sib borayotgan talabni qondirish uchun hosildorlikni sezilarli darajada oshirish kerak bo'ladi.(5)

Zang kasalligi, — o'simliklarda zamburug'lar keltirib chiqaradigan kasallik g'alla ekinlari, beda, bug'doy, malina, nok, lavlagi, zig'ir, no'xat, kungaboqar, bodom, olma, nok kasallanadi. Barglarning zang teliosporalari hosil bo'lganda, ular odatda pastki barg yuzalarida teliyadan chiqadi, ular bilan qoplangan epidermis hujayralari. Kasallik harorat oralig'ida tez rivojlanadi 10 ° va 30 ° C. Barg zanglari bug'doy o'stirilgan joyda ma'lum darajada sodir bo'ladi. G'alla hosildorligidagi yo'qotishlar, birinchi navbatda, gul to'plami va donning kamayishi bilan bog'liq. qichishish. Juda sezgir genotiplarda gulzorlar, o'simliklar va o'simliklar bo'lishi mumkin erta (oldindan) epidemiyalar

tomonidan o'ldirilgan. Barglarning zanglashi tufayli yo'qotishlar odatda kichik (10 foizdan kam), ammo og'ir (30 foiz yoki undan ko'p) bo'lishi mumkin. (6) Kasallangan o'simlik bargi, poyasi va qisman mevasida zarg'aldoq, keyinchalik jigarrang spora do'mboqchalari paydo bo'ladi, o'simlik yaxshi rivojlanmaydi, ba'zan barglari quriydi, g'alla ekinlari boshqolmaydi. Zang zamburug'larining bahor, yoz va qishki sporalari rivojlanish siklini ikki xil o'simlikda o'tkazadi. Masalan, bug'doy, sulini, javdarda uchraydigan chiziqsimon zang (qo'zg'atuvchisi *Puccinia graminis*) zamburug'lari don ekinlari poxolida qishlab, bahorda zirkka o'tadi, so'ng yana don ekinlarga o'tadi. Agar bahorning seryog'in kelishi kutilayotgan bo'sa, boshqolli don ekinlaridan mo'l hosil olish uchun agrotexnik tadbirlar o'tkazish bilan bir qatorda, uning kasallik, zararkunanda va begona o'tlarga qarshi samarali kurash tadbirlarini o'tkazish muhimdir. Ushbu kasalliklar ichida sariq zang kasalligi o'ta xavfli bo'lib, bu kasallik don to'lish fazasida uchraganda 5-10 foizdan 30-35 foizgacha hosilni nobud qiladi. Kasallik g'allani bayroq barg chiqarish fazasida (boshqol chiqarish arafasi) sariq zang rivojlanish darajasi o'rtacha 50-60 % ga yetsa, don xosilining 45-50 % yo'qotish mumkin. Uning keng tarqalishi va rivojlanishiga seryomg'ir va ochiq havoning surinkali almashib turishi qulay sharoit tug'diradi, yuqori namgarchilikda uning sporalari o'sa boshlaydi, 2 gradus haroratda esa o'simlik to'qimasiga kiradi. Kasallikning tez tarqalishi va rivojlanishi uchun o'rtacha harorat 8-15 gradus bo'lganda ommaviy ko'payib, g'alla maydonlariga tarqalib ketadi. Qo'ng'ir zang kasalligi biroz yuqoriroq haroratda ya'ni 16-22 gradusda yaxshi rivojlanadi. So'nggi yillarda kasallikning bundan ham yuqoriroq haroratlarda rivojlanishiga moslashgan ekotiplari paydo bo'ldi. Hatto mintaqalarda kasallik o'ta kuchayib, epifitotiya shaklida tarqalmoqda. Zang bilan zararlangan kuzgi bug'doy o'simliklari rivojlanishi jumladan, yashil tusini saqlagan barg yuzasi kamayadi, ildizlari zaiflashadi, ozuqa moddalar va suvni o'zlashtirilishi susayadi, bo'yi past poyasi nozik bo'lib, yotib qolishga moyilligi ortadi, gullar boshqolchalar soni kamayadi, don puch bo'lib qoladi va yalpi hosil kamayadi. Respublikamizning g'alla maydonlarida uchraydigan zamburug'li kasalliklarga qarshi samarali usullarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Eng yashxi choralardan biri avvalo kasallikka chidamli navlarni ekish hamda kasallikning tarqalishini oldini olish hisoblanadi. Boshqolli don ekinlarining kasalliklariga qarshi kimyoviy kurash choralari o'simlikning kasallanish darajasi 5-20 %gacha zararlanganda boshlanadi. Zang kasalliklari bilan kasallanishga moyil bo'lgan maydonlarda profilatik kimyoviy kurash o'tkazish zarur. Kasalliklarga qarshi samarali kurash tadbirlari o'tkazilmasa, g'alla hosilini 50-60 foizgachasi nobud bo'lishi mumkin. Zang kasalliklariga qarshi kurashishda bir qator funksidlar sinovlardan o'tkazilib, shulardan yuqori samara beradiganlari; Reykon 28%. 0,5 l/ga, Splesh 30%. 0,2-0,3 l/ga, Top-Krop 40%. 0,25-0,3 l/ga, Super Konazol 33%. 0,3-0,35l/ga, Sipko-Super 33%. 0,3 l/ga, Tiltazol 500. 0,170l/ga, NovIks 25%. 0,25-0,5

l/ga, Azilon 32%. 1,0 l/ga, Xeben Duo 40%. 0,2-0.3l/ga, R-Ultra super 33%. 0,3 l/ga, kabi fungitsidlarni me'yorlarda qo'llash kasalliklarni keng tarqalishiga barham beradi va yo'qotilishi mumkin bo'lgan hosil saqlab qolinadi.

**Qorakuya** — zamburug'lar qo'zg'atadigan o'simliklar kasalligi. Asosan, boshokli ekinlar kasallanib, qishloq xo'jaligiga katta zarar yetkazadi. Zararlangan boshqoq, ro'vak, so'ta, poya, barg va ildiz bo'yinlari qora sporali massaga aylanadi. Qorakuya o'simlik tugunchasini yemiradi va "qorakuya xaltachalari" yoki alohida spora holida urug'larda shaklanadi. Zararlangan dondan nam havoda badbo'y hid keladi; Qorakuya sporalari tugunchani zararlaydi, lekin ro'vak va boshqoqlar zararlanmaydi, sporaning qattiq qora massasi boshqoq qobig'ini teshib o'tadi. Qorakuya zamburug'lari sholi, qo'noq, oq jo'xori, chumiza kabi donli ekinlarda ham parazitlik qiladi. Kasallik natijasida ekinlari hosildorligi 20— 30% kamayib ketadi. Kurash choralari: kasallikka chidamli navlar ekish; yuqori agrotexnika, almashlab ekish. urug'larni tozalash va dorilash; urug'likni oftobga yoyish va boshqa mikrobiopreparatlardan foydalaniladi, ekinlar urug'ligi kimyoviy preparat (dori)lar bilan dorilanadi, o'simliklarga pestitsidlar, fungitsidlar purkaladi yoki changitiladi.

**Xulosa.** Bug'doyda bo'ladigan zang va qorakuya kasalliklarini qanday holatda tarqalishi, kasalliklarni belgilari qanday namoyon bo'lishini va unga qarshi kurashishni o'rganish lozim. Kasallikni tarqalishini oldini olish uchun unga biologik va kimyoviy kurash tadbirlari o'z vaqtida olib borish kerak. Agar kasallikni oldi olinmasa zamburug'lari ko'payib butun dalani zararlayi va hosil kamayib ketadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

- 1 Zuparov M.A. va boshqalar. Mikrobiologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari. O'quv qo'llanma. ToshDAU nashriyoti, 2014. -116 b.
- 2 Burxanova X.K., Inogamova.M. – Mikrobiologiya va virusologiya asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent., 1983.-122 b.
- 3 Gariev B.G. Mikrobiologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent: Mehnat, 1990. -212
- 4 Davronov Q., Xo'jamshukurov N. Umumiy va texnik mikrobiologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2005. -256 b.
5. Figueroa M., Hammond-Kosack KE, Solomon PS. Bug'doy kasalliklarini ko'rib chiqish - dala istiqboli // Molekulyar o'simliklar patologiyasi. – 2018. – T. 19. – Yo'q. 6. – 1523-1536-betlar.
6. Singh R. P. va boshqalar. Bug'doy zanglagan // O'sish. – 2002. – T. 2. – Yo'q. 25. – 35-bet.
7. Мирзаева С. А., Икромов О. Т., Туманбоев З. С. АНЖИР ПАРВОНАСИ–ХАВФЛИ ЗАРАРКУНАНДА //О'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 13. – С. 549-551.
8. Odiljon o'g'li T. O. et al. SHOLINING PIRIKULIYARIOZ KASLLIGI VA UNGA QARSHI KURASHISH CHORALARI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 30. – №. 1. – С. 146-150.